

FRAZEOLIGIK BIRLIKLAR: MEZONLAR, SEMANTIKA VA LINGVOMADANIY ASPEKT

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i02.009>

G'ulomov Jamshidbek Islomjon o'g'li
jigulomov@kokanduni.uz
Qo'qon davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot frazeologik birliklarni tahlil birligi sifatida ko'rib chiqishga bag'ishlangan bo'lib, unda frazeologizm tushunchasining nazariy talqinlari, asosiy belgilari, semantik tuzilishi hamda lingvomadaniy tadqiq etish tamoyillari yoritiladi. Ishda frazeologiya sohasida mavjud bo'lgan "keng" va "tor" yondashuvlar tahlil qilinib, frazeologik birliklarning chegaralarini belgilash masalasining munozarali jihatlari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot metodologik asosi sifatida frazeologik birliklarning nominativ-funksional tasnifi qabul qilinib, idiomalar, frazeologik birikmalar va turg'un o'xshatishli iboralar alohida tahlil obyektlari sifatida qaraladi. Frazeologik birliklarning semantik tuzilishi denotativ, signifikativ va konnotativ makrokomponentlar doirasida izohlanadi, bunda konnotativ komponentning ustun roli asoslab beriladi. Ishda frazeologik obrazlilik, ichki shakl va motivlanganlik tushunchalarining o'zaro bog'liqligi ochib berilib, frazeologik birliklarning ikkilamchi nominatsiya birliklari sifatidagi xususiyatlari ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, tabiiy unsurlar bilan bog'liq frazeologik birliklarning lingvomadaniy mazmuni, ularning ramziy va pragmatik xususiyatlari ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklar semantikasida madaniy axborotning shakllanishi va diskursdagi funksional faoliyatini tushuntirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: frazeologik birlik, frazeologizm, idioma, nominativlik, idiomatiklik, barqarorlik, semantik tuzilma, konnotatsiya, obrazlilik

PHRASEOLOGICAL UNITS: CRITERIA, SEMANTICS, AND THE LINGUOCULTURAL ASPECT

Gulomov Jamshidbek Islamjon oglu
zhigulomov@kokanduni.uz
Kokand State University

Abstract: This study is devoted to examining phraseological units as units of analysis and explores the theoretical interpretations of the concept of phraseologism, its defining features, semantic structure, and principles of linguocultural research. The

paper analyzes the “broad” and “narrow” approaches existing in phraseological studies and highlights the controversial aspects of defining the boundaries of phraseological units. As the methodological basis of the research, the nominative-functional classification of phraseological units is adopted, with idioms, phraseological combinations, and fixed comparative expressions considered as separate objects of analysis. The semantic structure of phraseological units is described within the framework of denotative, significative, and connotative macrocomponents, with particular emphasis placed on the dominant role of the connotative component. The study reveals the interrelation between phraseological imagery, internal form, and motivation, and demonstrates the characteristics of phraseological units as secondary nomination units. In addition, the linguocultural content of phraseological units related to natural elements, as well as their symbolic and pragmatic features, is examined on the basis of English and Uzbek language material. The research findings contribute to understanding the formation of cultural information in the semantics of phraseological units and their functional activity in discourse.

Keywords: phraseological unit, phraseologism, idiom, nominative function, idiomaticity, stability, semantic structure, connotation, imagery

KIRISH

Frazeologiya fanining jadal rivojlanishiga qaramay, uning ayrim masalalari hali ham o‘z yechimini topmagan. Shular jumlasiga frazeologlar qo‘ygan barcha talablarga javob beradigan frazeologizm tushunchasining ta’rifi ham kiradi. Yagona talqinning yo‘qligi til frazeologik tizimining tashqi chegaralari noaniqligiga, alohida frazeologik birlikning boshqalar bilan tizimli munosabatlari (sinonimiya, antonimiya, omonimiya, polisemiya) xususiyatini turlicha tushunishga, qo‘llanishning uzual va okkazional xarakteriga va boshqa holatlarga olib keladi. O.P.Fesenkoning ta’kidlashicha, “frazeologizm” atamasi hozirgi kunda fanda na yagona nomga, na uni ajratish mezonlari haqida aniq tushunchaga ega.

Frazeologik birliklarning an’anaviy ajralib turadigan asosiy belgilari quyidagilardir:

alohida shakllanganlik;

takrorlanuvchanlik;

idiomatiklik;

barqarorlik.

Turli olimlar frazeologik birliklarni aniqlash mezonlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatadilar: so‘z xarakteridagi ikki yoki undan ortiq urg‘uli komponentlarning mavjudligi (N.M.Shanskiy), turg‘un birikma (N.N.Amosova), tuzilmaning nopredikativ yoki predikativ xarakterdagi teng va tobe so‘z birikmalariga mosligi (V.P.Jukov), ma’lum bir so‘z turkumiga aloqadorligi (A.M.Chepasova), tilning

nominativ inventariga tegishliligi va matndan tashqarida obyektiv modallikning yoʻqligi (V.N.Teliya), ekspressivlik, metaforiklik, obrazlilik, boshqa tillarga tarjima qilinmaslik va boshqalar. "Frazeologizmlarni ajratish mezonlari masalasi frazeologiyaning chegaralari masalasi bilan bogʻliq: u yoki bu konsepsiya muallifi nazariy jihatdan frazeologik xususiyatlarni qanchalik kam belgilasa, frazeologiyaning chegaralari shunchalik keng boʻladi".

Rosamund Moon (1998) ingliz tilshunosligi doirasida frazeologik birliklar (idiomalar) ga alohida *leksik birlik* (multi-word lexical item) sifatida qaraydi. Moonning korpus yondashuvi shuni koʻrsatadiki, tarkiban bir nechta soʻzlarning birikuvidan iborat frazeologik ifodalar tilda *yaxlit birlik* sifatida saqlanadi va ularning maʼnosi individual komponentlardan kelib chiqmaydi, yaʼni ular nominal yoki leksik birliklardan biri sifatida koʻriladi. Bu qarash frazeologizmlarning nomativ funksiyasini, yaʼni nutqda predmet va tushunchalarni belgilashdagi rolini asoslashga xizmat qiladi.

Rosamund Moon va umumiy tilshunoslik tadqiqotlarida frazeologik birliklarga til lugʻatining "leksik birliklar" qatorida qaraladi, chunki yaxlit ibora sifatida yagona umumiy maʼnoga ega ekanligi frazeologizmlar tilning leksik fondida alohida element sifatida saqlanishini anglatadi. Bu yondashuv frazeologizmlarni nominal (nominative) birliklar deb qarashga ilmiy asos beradi (idiomalar "lexical items" sifatida). Oʻzbek tilida frazeologik birliklar lugʻaviy birliklar majmui boʻlib, leksik-semantik birlik sifatida tahlil qilinadi va bu tilshunoslikda ularning nominativ rolini (maʼno belgilovchi birlik sifatida) taʼkidlaydi. Qaysi mezonlar aniqlovchi (kategorial) sifatida ilgari surilishiga qarab, frazeologiya tarkibi idiomalargacha torayishi yoki kengayishi mumkin va ular maqol va matallar, qanotli iboralar, frazeosxemalar, kollokatsiyalar va klishe'larni oʻz ichiga oladi. Baʼzi olimlar frazeologik birliklarni ularning xilma-xilligini aniqlash va tasniflash imkonini beradigan mezonlarni ajratib boʻlmaydi, degan xulosaga kelishadi. D.N.Shmelevning fikricha, frazeologik birikmalarni "bogʻliqlik" umumiy belgisidan aniqroq belgilar asosida birlashtirish mumkin emas. Ularni tasniflash uchun yagona asos berish ham imkonsiz, chunki bu yerda "bogʻliqlik" manbalari turlicha".

Hozirgi kunda frazeologiya sohasidagi tadqiqotlarning aksariyati shartli ravishda frazeologik birlik tushunchasini aniqlashda ikkita asosiy yondashuvga boʻlinadi: "keng" va "tor". Keng yondashuvga koʻra (frazelogizmlarning takrorlanuvchanligi konsepsiyasi) frazeologik birliklar qatoriga soʻz boʻlmagan, tayyor holda takrorlanadigan barcha til birliklari kiradi. Bunday yondashuv N.M.Shanskiy, L.I.Royzenzon va boshqalarning ishlarida kuzatiladi.

L.I.Royzenzon frazeologik birliklarni aniqlash uchun takrorlanuvchanlik mezonini, yaʼni "frazelogik takrorlanuvchanlik"ni asosiy deb hisoblaydi. Bu mezon ostida u tilda frazeologizmlarning (til egasining lisoniy ongida) nutq yaratishga yaroqli

tayyor birliklar ko‘rinishida mavjudligini tushunadi. Muallif frazeologik birliklarni til birliklari sinfi sifatida so‘zlar, so‘z birikmalari, gaplardan farqlash maqsadida o‘z dalillarini keltiradi va bu sinf chegaralarida u yoki bu “frazelogiyalashish turi”ga ko‘ra hosil bo‘lgan ko‘plab kichik guurhlar mavjudligini ta’kidlaydi. Tor yondashuv (frazelogizmlarning semantik konsepsiyasi) asosida frazeologizmni so‘zga nisbatan semantik jihatdan murakkab birlik sifatida tasavvur qilish yotadi. V.M.Mokiyenko, V.P.Jukov, A.I.Molotkov, Yu.P.Solodub, V.N.Teliya va boshqalarning ishlarida turli xil semantik tasniflar taqdim etilgan.

Frazelogiyani “keng” va “tor” tushunish chegaralarini belgilab, L.I.Royzenzonning katta frazeologik birliklar to‘plamida turli xil turdagi frazeologizmlar mavjudligi va V.N.Teliyaning barcha turdagi frazeologik birliklar “har bir to‘plamga xos bo‘lgan belgilar va ular o‘rtasidagi munosabatlar asosida juda noaniq to‘plamlarga birlashtirilishi” haqidagi fikriga qo‘shilamiz. V.M.Mokiyenko, A.I.Fedorov, Yu.P.Solodub (va boshqa ba’zi tadqiqotchi olimlarning) g‘oyalarini hisobga olgan holda, biz zamonaviy frazeologlarning ishlarida (A.K.Birix, V.M.Mokiyenko, L.I.Stepanova, Yu.P.Solodub, N.A.Ryabinina va boshqalar) paydo bo‘lgan frazeologizm tushunchasining hajmi bir qator belgilangan mezonlar bilan aniqlanadigan “oraliq” tushunchaga qo‘shilamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda biz V.N.Teliya monografiyasida keltirilgan FBlarning nominativ-funksional bo‘linishiga amal qilamiz. Muallif ko‘plab frazeologik tushunchalarning kontent tahlili asosida FBlarning uchta asosiy parametrini keltirib chiqardi:

1) nominativlik (tilning nominativ inventariga mansublik), ya’ni lisoniy ong tomonidan tildan tashqaridagi kontinuumdan ajratib olingan, ushbu lingvomadaniy jamoaning “dunyoqarashi”ga mos holda uning alohida fragmentlarini nomlash qobiliyati. FBlni muallif nominativ vazifani bajaruvchi nominativ birliklarning an’anaviy bo‘lmagan turlariga kiritadi;

2) idiomatiklik (to‘liq yoki qisman), ya’ni butun ibora ma’nosining so‘z-komponentlari “so‘zma-so‘z” ma’nolaridan yoki uning sintaktik tuzilishidan kelib chiqmasligi;

3) “tayyor holda” so‘z birikmalarining mutlaq yoki nisbiy takrorlanishida namoyon bo‘ladigan barqarorlik (uning u yoki bu darajadagi o‘zgaruvchanligi).

Ushbu tasnifga, bizning fikrimizcha, FBlning ajralmas belgilarini ham qo‘shish zarur:

4) alohida-alohida shakllanganlik - FB tarkibida ikki yoki undan ortiq so‘z-komponentlarning mavjudligi, ya’ni bir so‘zli bo‘lmagan tuzilma;

5) obrazlilik, bunda leksik yoki frazeologik birlikning ushbu birlik deb ataluvchi predmet yoki hodisaning umumiy real yoki mavhum belgilariga asoslanib, ushbu

predmetning boshqa predmet (yoki vaziyat) bilan assotsiativ yaqinlashuvi orqali tilga xos, milliy jihatdan shartlangan talqinini yetkazish qobiliyati tushuniladi.

Obrazlilikni frazeologik birliklarning ajralmas belgilari qatoriga kiritish zarurati ko'rib chiqilayotgan til belgilarining tabiatidan kelib chiqadi. Aynan obrazlilik ularning ma'nosi obrazli motivlangan frazeologizmlar asosida paydo bo'lishidagi eng muhim omillardan biridir. V.M.Mokiyenko ta'kidlaganidek, "frazeologik birliklarni yaratishning asosiy usuli bevosita ma'nosi til egalariga tushunarli bo'lgan erkin so'z birikmalarining semantik transformatsiyasidir".

Bunday semantik transformatsiya FB tarkibidagi so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri ma'nolarini ko'pincha metafora (ayrim hollarda boshqa ko'chim) orqali obrazli qayta anglash orqali amalga oshiriladi. Frazeologiyada idioma-frazeologizmlarning har qanday til frazeologik fondining yadrosiga mansubligi umume'tirof etilgan jihatdir. Aynan shu FB qatlami yuqorida sanab o'tilgan barcha xususiyatlarga ega. Turli asoslarga ko'ra, frazeologizmlar sinfiga kiritilgan boshqa birliklarning frazeologik xususiyati kamroq ifodalanadi. Ushbu ishimizda FB larni chegaralashning yuqoridagi mezonlarini hisobga olgan holda, quyidagilar tahlil qilindi: 1) frazeologizm - idiomalar; 2) frazeologik birikmalar, turg'un qiyosiy iboralar (ularning frazeologikligi kamroq ifodalanagan).

V.N.Teliyaga ergashib, idioma deganda biz bitta denotat (voqeliklar, xususiyatlar, hodisalar, faktlar va boshqalar guruhi) bilan bog'liq bo'lgan obyektini ko'rsatishga qodir bo'lgan so'zlarning shunday birikmasini tushunamizki, uning hech bir belgisi shu birikma tarkibiga kiruvchi alohida nom bilan bog'liq bo'lmaydi. Zamonaviy tilshunoslikda frazeologik chatishmalar va frazeologik birliklarni farqlamaslik, ularni umumiy iboralar sinfiga birlashtirish an'anasi tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ko'pgina olimlar ta'kidlaganidek, idiomatika va frazeologik birliklarning boshqa turlari o'rtasida aniq chegara qo'yish mumkin emas. Turli xil oraliq va transformatsiya holatlari iboralarni "yadro-periferiya" munosabatlarini aks ettiruvchi "frazeologik transformatsiya"ning maxsus kategoriyasiga birlashtirish taklif etiladi. Frazeologiyaning periferik zonasiga biz frazeologik birikmalarni kiritamiz. Frazeologik birikmalar idiomalardan o'zining analitikligi bilan ajralib turadi, ya'ni ularning tarkibidagi leksemalardan biri har doim mustaqil denotativ munosabatga ega bo'ladi, boshqa nom esa o'zining denotatini ushbu (birinchi ko'rsatilgan) ism orqali ko'rsatadi. Bunday birikmalar xorijiy (asosan ingliz-amerika) an'anasida "kollokatsiya"lar deb ataladi.

An'anaga ko'ra, maqol va matallarni tilning frazeologik tarkibiga kiritish masalasi munozarali hisoblanadi. Yu.P.Solodubga ergashib, maqol va matallar (paremiyalar) biz tomondan "yopiq gap tuzilishiga ega bo'lgan qisqa va aniq xalq maqollari, ya'ni ochiq sintaktik pozitsiyalarga ega bo'lmagan gaplar" sifatida tushuniladi. Paremiyalar semantikasida nominativlik belgisining nomuntazam

namoyon bo'lishini, shuningdek, boshqa turdagi frazeologik birliklardan struktur jihatdan farqlarini hisobga olgan holda, ushbu birliklarni tadqiqot ishimizda tahlilga tortmaslik o'zini oqlaydi, deb hisoblaymiz. "Frazeologik transformatsiya" kategoriyasiga biz turg'un o'xshatishli iboralar (qo'ydek yuvosh)ni - bir hodisa ikkinchisiga qandaydir umumiy belgiga ko'ra o'xshatiladigan obrazli iboralarni kiritamiz. Tilshunoslikda ushbu iboralarni tilning frazeologik tarkibiga kiritish an'anasi mavjud (Mokiyenko, 1980; Frazeologicheskiy slovar russkogo yazika (FSRYA) - 1986; Rus frazeologiyasi: tarixiy-etimologik lug'at (REIES) - 2005 va boshqalar). V.M.Mokiyenkoning ta'kidlashicha, aynan turg'un o'xshatishli iboralar har qanday tildagi frazeologik zaxiraning salmoqli qismini tashkil etadi. Olim o'xshatish va metaforaning umumiylikni narsa yoki hodisalarning o'xshashligi asosida frazeologik assotsiatsiyalarni yaratishda, ularning farqini esa, frazeologning fikriga ko'ra, birinchi navbatda, mazmunni ifodalashda ko'radi, chunki o'xshatish metaforaga qaraganda manzarani aniqroq tasvirlashning oddiy vositasidir.

NATIJALAR

A.M.Melerovich frazeologizmlarning semantik tuzilishida bu birliklarning umumiy semantik mazmunining ma'lum jihatlarga mos keladigan turli xil semantik elementlarni ajratadi. Tadqiqotchi ekstralingvistik obyektlar bilan bog'lanish xususiyatiga ko'ra frazeologizmlar semantik komponentlarining ikki asosiy turini farqlaydi: "1) frazeologik ma'no elementlari: denotativ-signifikativ (predmetli-mantiqiy) ma'no va konnotatsiya; 2) formal xarakterdagi semantik elementlar: kategorial-frazeologik birliklarning grammatik ma'nosi, so'z shakllari va sintaktik tuzilmalarning grammatik belgilari, bu birliklarning ichki shakli, frazeologik ma'noning lingvistik motivatsiyasi. Ikkinchi turdagi elementlar orqali frazeologik belgining predmetli-mantiqiy mazmunining uning moddiy shakli bilan semasiologik aloqasi amalga oshiriladi, ular yordamida frazeologik ma'no shakllanadi va ifodalanadi". Frazeologik birliklarning ma'nosi bilan bog'liq ko'plab tadqiqotlarni hisobga olgan holda, bunday birliklarning ma'nosini ko'p aspektli deyish mantiqan to'g'ri bo'ladi. Frazeologizmlar semantikasiga ikkilamchi nominatsiya birligi sifatida, ularda yashiringan ma'noning voqelanishi nuqtayi nazaridan yondashadigan bo'lsak, FBning ma'no strukturasi motivlanganlik, obrazlilik, ichki shakl kabi o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etuvchi elementlarni o'z ichiga oladi.

Tilning leksik birliklariga nisbatan motivatsiya, eng umumiy ma'noda, "ma'lum bir so'zning boshqa so'z bilan shunday bog'liqligiki, bunda birinchisining ma'nosi ikkinchisining shakli va (yoki) ma'nosiga murojaat qilish orqaligina tushuntirilishi mumkin". FBning yuzaga kelishiga asos bo'lgan motivlovchi belgining mavjudligi haqidagi qoida an'anaviy hisoblanadi. Bunday xususiyat frazeologik obraz (FBning ichki shakli asoslari) yaratish uchun asos, "motiv" beradi. Ye.A.Yurining ta'kidlashicha, tilshunoslikda, odatda, "obraz" (timsol) atamasining ikkita o'zaro

bog'liq ma'nosi qo'llaniladi: 1) so'z bilan ataluvchi voqelik haqidagi aniq hissiy tasavvur - birlamchi obraz-geshtalt; 2) predmetni "qo'shaloq ko'rish", ya'ni bir hodisani boshqa hodisa bilan o'xshatish orqali majoziy ifodalash - ikkilamchi majoziy obraz (obraz-metafora, obraz-o'xshatish, obraz-metonimiya). Ko'pgina olimlar (V.M.Mokiyenko, A.I.Fedorov, A.F.Artemova, N.F.Alefirenko, N.N.Semenenko va boshqalar) tomonidan frazeologik birliklar obrazlilikining ikki tomonlama tabiati e'tirof etilgan bo'lib, ular FBlarning boshqa realiyalar haqidagi bilimlar prizmasi orqali atrofdagi dunyo realiyalarini nomlash qobiliyatini ta'kidlaydilar.

Frazeologik obrazlarning turli ko'rinishlari ajratiladi. N.F.Alefirenko FBning etimologik (birlamchi) obrazini va "jonli obraz" (ikkilamchi) deb ataladiganini ajratib ko'rsatadi. Birinchisi frazeologizm yaratishda ishtirok etadi. Ko'plab frazeologlar (V.P.Jukov, A.I.Fedorov, V.M.Mokiyenko, A.M.Emirova, N.F.Alefirenko va boshqalar) ta'kidlaganidek, FBlni shakllantirishda aynan obraz alohida ahamiyatga ega. "Frazeologizmlarning paydo bo'lishi ko'pincha nutq jarayonida bitta so'z yoki kengaytirilgan so'z birikmasi bilan ifodalangan ma'lum bir ma'noni aniq tasvir orqali, kim yoki nima haqida jonli, obrazli tasavvur orqali yetkazish zarurati bilan bog'liq".

Frazeologik birlik turli sabablarga ko'ra birlamchi (etimologik) obrazni yo'qotishi mumkin: dastlabki motivatsiyaning unutilishi; frazeologik birliklar tarkibiga kiruvchi so'zlarning iste'moldan chiqishi; frazeologizmlarning shakllanishiga asos bo'lgan voqeliklar, faktlar, hodisalar mavjudligining to'xtashi va boshqalar.

MUHOKAMA

Ichki shakli o'chib ketgan frazeologizmlarda dastlabki etimologik obrazni tiklash etimologik tahlil yordamida amalga oshirilishi mumkin, ammo faktik materialning yetarli emasligi yoki yo'qligi tufayli buning har doim ham imkoni bo'lavermaydi. N.A.Ilyuxina turli darajadagi yorqinlik/o'liklik metaforalarda, o'xshatishlarda, frazeologizmlarda lisoniy obrazlilikning namoyon bo'lishini ta'kidlab, "semantik ikkiyoqlamalilikning o'likligini qayd etish qabul qilingan hodisalarni ham talqin qilish uchun obraz kategoriyasidan foydalanish maqsadga muvofiq", deb hisoblaydi [Ilyuxina, 1998, 22-bet]. Demak, FBlarning etimologik tahlili imkoniyati bor-yo'qligidan qat'i nazar, asl obrazlilik xususiyati yo'qolgan taqdirda ham ular obrazli til birligi bo'lib qolaveradi. Frazeologik obrazlilik haqida gapirganda, bu borada FBlarning ichki shakli tushunchasini chetlab o'tish mumkin emas, chunki aynan obrazlilik frazeologizmlar ichki shaklining asosini tashkil etadi.

"Tilning ichki shakli" tushunchasi V. fon Gumboldt ta'limotiga borib taqaladi, u ushbu hodisada tovushning bir paytlar u bilan bog'liq bo'lgan sezgilar bilan assotsiatsiyalarni keltirib chiqarish qobiliyatini nazarda tutadi. "Ichki shakl" (ISh) atamasi A.A.Potebnya asarlarida o'zining lingvistik talqinini topdi: "Bir xil o'zakli, biri ikkinchisidan ketma-ket kelib chiqadigan so'zlar qatorida, har qanday oldingi narsa keyingisining ichki shakli bo'lishi mumkin". Ichki shakl muammosi ko'plab tilshunos

tadqiqotchilarning ishlarida muhokama qilinadi. V.P.Jukovning fikricha, frazeologik shakl erkin soʻz birikmasi va uning asosida hosil boʻlgan frazeologizm oʻrtasida vositachi boʻlib xizmat qiladi va keyinchalik tushunchaga aylantirilishi kerak boʻlgan majoziy tasavvurning tashuvchisi hisoblanadi. "Ichki shakl frazeologizmning ichki qiyofasini, uning ichki shaklini shakllantiruvchi soʻz birikmasining metaforik qayta idrok etilishi natijasida yuzaga keladigan frazeologik maʼnoning shakllanishida ishtirok etadi. Shu bilan birga, bunday frazeologizmning asosida yotgan tasvir belgilash obyektni bashorat qiladi, yaʼni oʻziga xos ifodalash vazifasini bajaradi, aks holda maʼnoning motivlanganligi haqida gapirish mumkin emas edi".

XULOSA

Toʻplangan maʼlumotlarni frazeologizmlarning ichki shakli bilan bogʻlash orqali FB semantikasida mustahkamlangan va qiyoslanayotgan tillarda soʻzlashuvchilar ongida tabiiy unsurlar haqidagi lingvomadaniy tasavvurlarni ifodalovchi elementlarning obrazli ifodalanishi aniqlandi. Muammoning tarixini oʻrganish asnosida "ramz" tushunchasi aniqlandi. Olingan maʼlumotlar asosida FBlarning ichki shakli va maʼnosini introspektiv tahlil qilish natijalari bilan va ularni madaniyatshunoslik maʼlumotlari bilan bogʻlash frazeologik birliklar tarkibidagi tabiiy ofatlar tasvirining belgi-xususiyatlarini aks ettiruvchi frazeologizmlar tasnifini ishlab chiqish imkonini berdi. Bunday tahlil usuli ingliz va oʻzbek lingvomadaniyatining tabiiy unsurlar haqidagi tasavvurlar bilan bogʻliq boʻlgan qadriyatli sohalarini aniqlash, oʻz semantikasida ular bilan bogʻliq madaniy maʼlumotlarni qayd etuvchi til frazeologik birliklarining oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, til belgilarining rivojlanishi va ishlash qonuniyatlarini kuzatish imkonini berdi.

Tadqiqot til birliklarini ularning statik va dinamik xususiyatlarini hisobga olgan holda bir butunlikda tizimli koʻrib chiqishni taʼminlaydi. Konnotatsiyaga asoslangan FBlar, bir tomondan, oʻz semantikasida etnomadaniy bilimlarni saqlasa, ikkinchi tomondan, ekspressivlik hisobiga diskursda qoʻllanilish jarayonida pragmatik taʼsir koʻrsatadi. Shunday qilib, frazeologizmlar semantikasining chuqur qatlamlaridan madaniy maʼlumotlarni aniqlash bilan bir qatorda, ularning bevosita diskursda mavjud boʻlishining dinamik rejasini koʻrib chiqish informativlik kasb etadi. Tahlilning asosiy chizigʻiga ramziylik jihatini qoʻshadigan tabiiy ofat nomlari asosida FBlarni oʻrganish juda muhimdir. Qiyoslanayotgan lingvomadaniyatlarda tabiiy unsurlarning frazeologik shakl bilan ifodalanishini oʻrganishning keyingi bosqichi funksional jihatga, yaʼni FBlarning diskursiv xususiyatlarini tavsiflashni oʻz ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Толстой Н. И. Язык и культура (некоторые проблемы славянской этнолингвистики) // Русский язык и современность. Проблемы и перспективы

развития русистики : доклады всесоюзной научной конференции. Москва, 20-23 мая 1991 г. - М., 1991. - Ч. 1. - С. 10

2. Гридина Т.А. Параметры лексикографической интерпретации диалектной фразеологии: лингвокультурологический аспект // Вопросы лексикографии. - 2017. - № 11. - С. 121.

3. Мокиенко В.М. Славянская фразеология: учебное пособие для филологических специальностей университетов. - М.: Высшая школа, 1980. - С.3.

4. Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. - М.: Языки русской культуры, 1996. - С.59.

5. Виноградов В.В. Лексикология и лексикография: избранные труды. - М.: Наука, 1977. - С. 137-138.

6. Алефиренко Н.Ф. Фразеология и паремиология: учебное пособие для бакалаврского уровня филологического образования. - М.: Флинта, 2009. - С.57.